

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING MEDIASAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHGA TA'SIR ETUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR

Ahmedova Shahnoza Xusanjon qizi

Turan International University 2-bosqich magistranti

Annotatsiya. Raqamli ta'lim muhitida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish faqat pedagogik metodlar bilan emas, balki psixologik omillar bilan ham bevosita bog'liq. Ushbu maqolada mediasavodxonlikka ta'sir qiluvchi psixologik omillar kognitiv jarayonlar (diqqat, idrok, xotira, kognitiv yuklama), emotsional-irodaviy holatlar (hissiy provokatsiyaga berilish, stress, raqamli charchoq, o'zini boshqarish), hamda ijtimoiy-psixologik mexanizmlar (ijtimoiy bosim, autoritetga ishonch, algoritmik ta'sirlar, ijtimoiy o'rganish) doirasida ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mediasavodxonlik, raqamli ta'lim muhiti, psixologik omillar, diqqat, tanqidiy tafakkur, raqamli charchoq, ijtimoiy bosim, refleksiya.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА РАЗВИТИЕ МЕДИАГРАМОТНОСТИ СТУДЕНТОВ В УЧРЕЖДЕНИЯХ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ.

Аннотация: В условиях цифровой образовательной среды развитие медиа грамотности студентов определяется не только педагогическими методами, но и совокупностью психологических факторов. В статье на научной основе анализируются основные психологические детерминанты медиа грамотности, включая когнитивные процессы (внимание, восприятие, память, когнитивная нагрузка), эмоционально-волевые состояния (подверженность эмоциональной провокации, стресс, цифровая усталость, само регуляция), а также социально-психологические механизмы (социальное давление, доверие к авторитету, алгоритмические воздействия, социальное научение).

Ключевые слова: медиа грамотность, цифровая образовательная среда, психологические факторы, внимание, критическое мышление, цифровая усталость, социальное давление, рефлексия.

PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF UNIVERSITY STUDENTS' MEDIA LITERACY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract: In a digital learning environment, the development of university students' media literacy is determined not only by pedagogical methods but also by a range of psychological factors. This article provides a research-based analysis of key psychological determinants of media literacy, focusing on cognitive processes (attention, perception, memory,

cognitive load), emotional and volitional states (susceptibility to emotional provocation, stress, digital fatigue, self-regulation), and socio-psychological mechanisms (social pressure, trust in authority, algorithmic influences, social learning).

Keywords: *media literacy, digital learning environment, psychological factors, attention, critical thinking, digital fatigue, social pressure, reflection.*

KIRISH

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar ta'lim tizimiga chuqur kirib kelishi natijasida talabalarning axborot bilan ishlash muhiti keskin o'zgardi. Oliy ta'limda elektron platformalar, onlayn kurslar, ijtimoiy tarmoqlar va ochiq manbalar o'quv jarayonining kundalik qismiga aylanmoqda. Bunday sharoitda talabanning ta'lim samaradorligi faqat resurslarga kirish imkoniyati bilan emas, balki axborotni tanlash, tekshirish, tahlil qilish, baholash va mas'uliyat bilan qo'llash ko'nikmalari bilan ham belgilanadi. Shu bois mediasavodxonlik oliy ta'lim uchun tayanch kompetensiya sifatida qaralmoqda.

Mediasavodxonlik ko'pincha "axborotni tekshirish" sifatida tushuniladi. Aslida esa bu ko'nikma kengroq mazmunga ega bo'lib, talabanning axborotni qanday qabul qilishi, diqqatini qanday boshqarishi, hissiy holat ta'sirida qanday qaror qilishi, ijtimoiy bosim va algoritmik tavsiyalar ta'sirida qanday yo'l tutishi kabi psixologik jarayonlarni ham o'z ichiga oladi. Masalan, kuchli hissiy sarlavha yoki ta'sirchan video talabanning tezkor xulosa qilishiga sabab bo'lishi mumkin. Daniel Kahneman va Amos Tversky ta'kidlaganidek, inson ko'pincha tezkor-intuitiv fikrlash asosida qaror qiladi, keyin esa qarorini "mantiqan asoslashga" urinadi. Raqamli muhit aynan tezkor reaksiya mexanizmini kuchaytirib, tekshiruvni chetga surishi ehtimoli yuqori.[]

Shuningdek, raqamli muhitda axborot fragmentar, qisqa formatda va bir vaqtning o'zida ko'p kanal orqali keladi. Bu holat diqqat tarqalishini kuchaytiradi, kognitiv yuklamani oshiradi va tekshiruv sifatini pasaytirishi mumkin. Emotsional jihatdan esa stress va raqamli charchoq talabanning "biladi, lekin qilmaydi" holatiga tushib qolishiga sabab bo'ladi. Ijtimoiy jihatdan esa layk, repost, trend kabi signallar mazmuniy dalil o'rnini bosib ketishi, autoritetga ishonch esa manba tekshiruvini susaytirishi mumkin. Albert Bandura izohlagan ijtimoiy o'rganish mexanizmlariga

ko'ra, talaba ko'p hollarda norma va xulqni namuna orqali egallaydi. Demak, mediasavodxonlikni rivojlantirishda o'qituvchi va akademik muhitning namunasi ham muhim.[2]

Shu sababli ushbu maqolaning maqsadi oliy ta'lim sharoitida mediasavodxonlikka ta'sir etuvchi psixologik omillarni tizimli yoritish, ularning ta'sir mexanizmini izohlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Raqamli ta'lim muhitida mediasavodxonlikni rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda pedagogika va psixologiya kesishgan nuqtada faol o'rganilmoqda. Tadqiqotlarda mediasavodxonlik ko'pincha axborotni izlash, tekshirish, tahlil qilish, baholash hamda mas'uliyatli qo'llash bilan bog'liq kompetensiya sifatida talqin qilinadi. Shu bilan birga, ko'plab manbalarda mediasavodxonlik faqat metodik yondashuvlar bilan emas, balki talabaning psixologik xususiyatlari bilan ham bog'liqligi ta'kidlanadi. Chunki raqamli muhitda axborot tez tarqaladi, qisqa formatlar ustun bo'ladi va hissiy ta'sir kuchli bo'ladi. Natijada talaba axborotga nisbatan tezkor qaror chiqarishi, tekshiruvni chetlab o'tishi yoki noto'g'ri talqin qilishi mumkin. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mediasavodxonlikka ta'sir etuvchi psixologik omillarni uch yo'nalishda izohlash keng tarqalgan: kognitiv jarayonlar, emotsional-irodaviy holatlar va ijtimoiy-psixologik mexanizmlar. Kognitiv yo'nalishda diqqatni boshqarish, idrok va talqin, xotira hamda kognitiv yuklama masalalari markaziy o'rinda turadi. Raqamli muhitda bildirishnomalar, parallel manbalar va tez-tez yangilanadigan oqim diqqatning bo'linishiga olib keladi, bu esa tekshiruv bosqichlarini qisqartiradi. Idrok jarayonida sarlavha ohangi, vizual tasvir, "trend" signallari va izohlar oqimi axborotni "ishonarli" ko'rsatib yuborishi mumkin. Xotira bilan bog'liq holatlarda esa bir axborotning ko'p takrorlanishi "tanishlik effekti"ni kuchaytirib, talaba uchun u haqiqatga o'xshab ko'rinishi ehtimoli ortadi. Kognitiv yuklama oshganda talaba murakkab tahlil o'rniga soddalashtirilgan qarorlar (manbani tekshirmaslik, izohlar asosida xulosa qilish)ga moyil bo'lishi mumkin.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Adabiyotlar tahlili va konseptual modellashtirish natijalari talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish jarayoni psixologik omillar bilan bevosita bog'liq ekanini ko'rsatdi. Raqamli ta'lim muhitida talaba axborot bilan ishlayotganda bir vaqtning o'zida bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy holatlar va ijtimoiy ta'sirlar ta'sirida qaror qabul qiladi. Shu sababli mediasavodxonlik faqat "tekshiruv qoidalari"ni bilish emas, balki tekshiruvni real vaziyatda barqaror bajarishga olib keladigan psixologik tayanchlar majmuasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil natijasida mediasavodxonlikka ta'sir etuvchi psixologik omillar uch guruhda tizimlashtirildi va ularning ta'sir mexanizmi izohlandi. Birinchi guruh kognitiv omillar bo'lib, ularga diqqatni boshqarish, idrok va talqin, xotira hamda kognitiv yuklama kiradi. Raqamli muhitda axborot oqimi tez va parcha-parcha bo'lgani sababli diqqatning tarqalishi tez-tez kuzatiladi. Bu holat tekshiruv jarayonini qisqartiradi, talabaning "avval ishonish, keyin tekshirish" yoki "umuman tekshirmasdan qabul qilish" xatti-harakatini kuchaytiradi. Idrok jarayonida sarlavha ohangi, rasm va video kabi vizual signal, shuningdek izohlar oqimi xabarni ishonchliroq ko'rsatishi mumkin. Natijada talaba dalilni tekshirishdan oldin hissiy baho berib ulguradi. Xotira bilan bog'liq jihatlarda esa axborotning takrorlanishi "tanishlik" hissini kuchaytirib, noto'g'ri xabarni ham "haqiqatga o'xshash" qilib ko'rsatadi. Kognitiv yuklama ortganda esa talaba murakkab tekshiruv o'rniga soddaroq yo'l tanlaydi, bu esa mediasavodxonlik sifatining pasayishiga olib keladi. Ushbu natijalar shuni anglatadiki, mediasavodxonlikni rivojlantirishda tekshiruv amallari bosqichma-bosqich, sodda algoritm asosida va muntazam mashqlar bilan qo'llab-quvvatlanishi zarur.[3]

Ikkinchi guruh emotsional-irodaviy omillar bo'lib, hissiy provokatsiyaga berilish, stress, raqamli charchoq va o'zini boshqarish mexanizmlarini qamrab oladi. Raqamli kontentning katta qismi qo'rqitish, g'azablantirish, hayratlantirish, achinish uyg'otish kabi hissiy mexanizmlar orqali tezkor reaksiyaga undaydi. Bunday sharoitda talaba tekshiruvni "keraksiz vaqt sarfi" deb qabul qilishi yoki tekshiruv natijasini ham hissiy filtr orqali noto'g'ri talqin qilishi ehtimoli oshadi. Raqamli charchoq kuchayganda esa talaba tekshiruv bosqichlarini qisqartiradi,

tayyor javobga tayanadi va oson yo'lni tanlaydi. Shuning uchun mediasavodxonlikni rivojlantirishda "to'xtab o'ylash" odatini shakllantiradigan psixologik mexanizmlar, refleksiya savollari va raqamli gigiyena elementlari muhim natija sifatida ajratildi. Ya'ni talaba axborotni tekshirishni faqat akademik topshiriq deb emas, balki ongli odat va o'zini boshqarish ko'nikmasi deb qabul qilishi kerak.

Uchinchi guruh ijtimoiy-psixologik omillar bo'lib, ijtimoiy bosim, autoritetga ishonch, algoritmik ta'sirlar va ijtimoiy o'rganishni o'z ichiga oladi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, layk, repost, trend va mashhurlik kabi "ijtimoiy signallar" ko'pincha talabanning ishonch qaroriga kuchli ta'sir qiladi. Natijada talaba "ko'pchilik shunday deyapti" degan mezonni dalil o'rniga qo'yishi mumkin. Autoritet omili ham xuddi shunday ishlaydi: taniqli shaxs, "rasmiy ko'rinish", professional dizayn yoki "mutaxassis" sifatida taqdim etilgan profil tez ishonch uyg'otadi, biroq bu ishonch doimo ilmiy asosga ega bo'lmaydi. Algoritmik ta'sirlar esa talabanning bir yo'nalishdagi axborotga ko'proq duch kelishiga olib kelib, axborot biryoqlamaligini kuchaytiradi. Ijtimoiy o'rganish mexanizmi bo'yicha esa akademik muhitda o'qituvchi va guruh "tekshiruv normasi"ni yaratib bera olsa, talaba ham tekshiruv odatini tezroq o'zlashtiradi. Shu natijalar mediasavodxonlikni rivojlantirishda muhit omili va muloqot madaniyati (netiket, hurmat, dalil bilan gapirish)ni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar muhokamasida shuni ta'kidlash zarurki, psixologik omillar mediasavodxonlikni pedagogik yondashuvlardan ajratib qo'ymaydi, aksincha ularni to'ldiradi. Pedagogik metodlar talabanning "nima qilish"ini o'rgatsa, psixologik mexanizmlar talabanning "qachon, qanday holatda va qanday sharoitda" bu ishni barqaror bajara olishini belgilaydi. Shu bois mediasavodxonlikni rivojlantirishda samarali natijaga erishish uchun pedagogik va psixologik omillar uyg'unlashtirilgan model zarur bo'ladi. Masalan, tekshiruv algoritmini berishning o'zi yetarli emas; algoritmnini amalda bajarishga undaydigan "to'xtash nuqtasi", refleksiya va motivatsion asos ham bo'lishi kerak. Xuddi shuningdek, rubrika va portfel orqali baholash nafaqat nazorat vazifasini bajaradi, balki talabanning o'z-o'zini baholashi va o'zini boshqarishini ham kuchaytiradi.

Shuningdek, natijalar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim sharoitida mediasavodxonlik talabalik yoshining rivojlanish vazifalari bilan ham bevosita bog'lanadi. Talabalik davrida shaxsiy identifikatsiya, mustaqil qaror qabul qilish, ijtimoiy mavqe va kasbiy pozitsiya shakllanadi. Raqamli muhitda esa bu jarayonlar tezlashadi va ommaviy ko'rinish oladi. Shu sababli mediasavodxonlik faqat "axborotni tekshirish" emas, balki mas'uliyatli ishtirokchi bo'lish, etik muloqot yuritish, shaxsiy va boshqalar ma'lumotini himoya qilish, provokatsiyaga berilmaslik kabi psixologik barqarorlik elementlarini ham qamrab olishi kerak.[4]

Umuman olganda, muhokama natijasida quyidagi ilmiy-amaliy xulosa shakllandi: talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish samaradorligi kognitiv, emotsional-irodaviy va ijtimoiy-psixologik omillarni birgalikda hisobga olgan taqdirdagina oshadi. Bu omillarni inobatga olgan holda ta'lim jarayonida tekshiruv algoritmini sodda va doimiy qo'llash, qisqa va muntazam mashqlarni yo'lga qo'yish, refleksiya savollari orqali "ongli tekshiruv" odatini mustahkamlash, akademik halollikni qadriyat sifatida shakllantirish hamda raqamli gigiyena ko'nikmalarini rivojlantirish amaliy jihatdan eng muhim yo'nalishlar sifatida belgilandi.[5]

XULOSA

Maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mediasavodxonligini rivojlantirish jarayoni nafaqat pedagogik metodlar, balki psixologik omillar bilan ham bevosita bog'liqligi ilmiy asosda yoritildi. Raqamli ta'lim muhitida talaba axborotni qabul qilish, baholash va undan foydalanishda doimiy ravishda ko'p manbali axborot oqimi, qisqa formatlar, hissiy ta'sir va ijtimoiy signal bosimi bilan yuzlashadi. Shu sababli mediasavodxonlikni shakllantirish "axborotni topish" darajasida qolmay, uni tekshirish, tahlil qilish, dalil bilan asoslash hamda mas'uliyatli qo'llashga yo'naltirilgan barqaror kompetensiya sifatida tashkil etilishi zarurligi asoslandi.

Tahlil natijalariga ko'ra, mediasavodxonlikka ta'sir etuvchi psixologik omillar uch yo'nalishda jamlandi. Birinchidan, kognitiv omillar (diqqat, idrok, xotira, kognitiv yuklama) talabaning axborotni chuqur tahlil qilish imkoniyatini belgilaydi. Diqqat tarqalishi, shoshilinch xulosa qilish va takrorlangan axborotni "ishonchli" deb qabul qilish kabi holatlar mediasavodxonlik xatolarini kuchaytirishi mumkin.

Ikkinchidan, emotsional-irodaviy omillar (hissiy provokatsiya, stress, raqamli charchoq, o'zini boshqarish) tekshiruvning real vaziyatda bajarilishiga bevosita ta'sir qiladi. Raqamli charchoq kuchaygan sari talaba tekshiruvni qisqartirishi yoki tayyor javoblarga tayanishi ehtimoli oshadi. Uchinchidan, ijtimoiy-psixologik omillar (ijtimoiy bosim, autoritetga ishonch, algoritmik ta'sir, ijtimoiy o'rganish) talabaning axborotga ishonch va qaror qabul qilish mexanizmlarini shakllantiradi. Layk va trend kabi ko'rsatkichlarning "dalil" o'rnini bosib ketishi yoki autoritet belgilarining noto'g'ri ishonch uyg'otishi mediasavodxonlik sifati uchun xavf omili bo'lishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Boltaeva M. L., Mahmudov N. Emergency instead of maternity education process developing training activities //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2019. – T. 1. – №. 6. – C. 456-459.
2. Makhmudov N. N., Makulov S. H. Z. Forms and methods of independent learning //В научный сборник вошли научные работы, посвященные широкому кругу современных проблем науки и образования, вопросов образовательных технологий 2020.-436 с. – 2020.– C. 167.
3. Boltaeva M., Makhmudov N. Forms of introduction of innovative technologies in physical training classes and ways of their use //Scientific bulletin of namangan state university. – 2019. – T. 1. – №. 2. – C. 302-306.
4. Makhmudov N. N. Based on the development of physical education and sports in higher education modeling the preparation of students for a healthy life //Thematics Journal of Education. – 2021. – T. 6. – №. November.
5. Makhmudov N. N. The role of physical culture and sports in preparing students for a healthy lifestyle in higher education //International journal of conference series on education and social sciences (Online). – 2021. – T. 1. – №. 2